



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 90 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA TABIIY FANNING O'RNI



G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi
 Jizzax davlat pedagogika universiteti
 Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanlarning o'rni o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida ekologik tarbiyaning nazariy asoslari tahlil qilinib, uni amaliyotga tatbiq etishning samarali metodlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ekologik ta'lim samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishning muhim yo'nalishlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: tabiatga muhabbat, ekologik tarbiya, tabiiy fan, boshlang'ich ta'lim, ekologik madaniyat, metodlar, o'quvchi, globus, tabiiy resurslar, mas'uliyatli munosabat.

Abstract: The role of natural sciences in the formation of environmental education among primary school students was studied. During the research process, the theoretical foundations of environmental education were analyzed, and effective practical methods for their implementation were developed. The findings identified key approaches to improving the effectiveness of environmental education and fostering students' responsible attitudes toward nature and the environment.

Key words: love for nature, environmental education, natural science, primary education, ecological culture, methods, student, globe, natural resources, responsible attitude.

Аннотация: Изучена роль естественных наук в формировании экологического воспитания у учащихся начальных классов. В ходе исследования были проанализированы теоретические основы экологического воспитания и разработаны эффективные практические методы их применения. По результатам исследования определены основные направления повышения эффективности экологического образования и формирования ответственного отношения учащихся к окружающей среде.

Ключевые слова: любовь к природе, экологическое воспитание, естественные науки, начальное образование, экологическая культура, методы, ученик, глобус, природные ресурсы, ответственное отношение.

KIRISH

Hozirgi davrda ekologik muammolar global tus olib, insoniyat hayoti va kelajagiga jiddiy xavf solmoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi hamda iqlim o'zgarishi kabi muammolar ekologik ongli avlodni tarbiyalash zaruratini yanada kuchaytirmoqda ^[1].

Boshlang'ich ta'lim shaxs shakllanishining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarda tabiatga bo'lgan munosabat, qadriyatlar va xulq-atvor asoslari shakllanadi. Shu bois ekologik tarbiyani boshlang'ich sinflarda samarali tashkil etish muhim pedagogik vazifa sanaladi.

Tabiiy fan o'quvchilarga tabiat haqidagi dastlabki ilmiy bilimlarni beruvchi asosiy fanlardan biri bo'lib, ekologik tarbiyani shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'lim tizimida ekologik tarbiyani shakllantirish masalasi pedagogik tadqiqotlarda muhim yo'nalish sifatida o'rganilgan.

N.N. Azizxo'jayeva pedagogik texnologiyalar orqali o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish, ularda mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, zamonaviy pedagogik yondashuvlar ekologik ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi ^[2].

B.R. Adizov esa boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etish orqali o'quvchilarning shaxsiy sifatlari va dunyoqarashini rivojlantirish mumkinligini asoslaydi ^[3].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat va ekologik ongni shakllantirish masalalari D. Mahkamova hamda S. Komilova tadqiqotlarida yoritilgan.

S. Komilova ekologik tarbiya jarayonida o'quvchilarda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishda pedagogik vositalar va metodlarning ahamiyatini ko'rsatadi [3].

D. Mahkamova esa ekologik madaniyatni shakllantirishning asosiy sharti sifatida o'quvchilarda ekologik bilim, ko'nikma va amaliy faoliyat uyg'unligini ta'kidlaydi [6].

Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi bo'yicha M. Xoliqova, M. Rajabova hamda Sh. Yuldasheva, N. Ortiqova tadqiqotlarida tabiiy fanlar orqali ekologik tushunchalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotchilar tabiiy fanlarning mazmuni o'quvchilarda tabiat hodisalarini anglash, ekologik muammolarni tushunish va tabiatga nisbatan ongli munosabatni rivojlantirishga xizmat qilishini qayd etadilar [8;10].

Shuningdek, D.I. Tosheva va G.K. Jamolova kichik maktab yoshidagi bolalarda ekologik tarbiyaning samarali shakllari sifatida amaliy mashg'ulotlar, kuzatishlar hamda interfaol metodlardan foydalanish zarurligini asoslab berganlar [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida: "Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar", 55-moddasida esa: "Yer va yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralarni umumxalq boyligidir. Ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir", – deb ta'kidlangan. Mazkur me'yorlar ekologik madaniyatni shakllantirish va fuqarolarda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, "Sog'lom avlod uchun" ordenining ta'sis etilishi, shu nomdagi davlat dasturi, "Ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasi"ning ishlab chiqilishi, "Ekoson" jamg'armasining tashkil etilishi, 2000-yilning "Sog'lom avlod yili" hamda 2005-yilning "Sihat-salamatlik yili" deb e'lon qilinishi ekologik tarbiya masalalariga davlat miqyosida katta e'tibor qaratilganidan dalolat beradi.

Aholi sonining ortib borishi natijasida ekologik va ijtimoiy muammolar ham tobora kuchaymoqda. Ayniqsa, yer, suv, energetika va oziq-ovqat bilan ta'minlash bilan bog'liq muammolar bugungi kunda global ahamiyat kasb etmoqda. Insoniyatning farovon hayoti ekologik muammolarni samarali hal etishga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda.

Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigiyenik, yuridik, estetik, pedagogik hamda psixologik yo'nalishlari mavjud. Pedagogik yo'nalishda ekologik ta'lim va tarbiya masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi [2].

Ekologik tarbiya – shaxsda tabiatga ongli, ehtiyotkor va mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. U ekologik bilim, ekologik ong, ekologik madaniyat hamda ekologik xulq-atvor kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Ekologik tarbiya nafaqat nazariy bilim berishni, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda ekologik tarbiyaning ahamiyati nihoyatda katta. Chunki kichik yoshdagi o'quvchilar tabiatga nisbatan qiziquvchan bo'lib, tez o'rganadi va taqlid asosida xulq-atvor shakllantiradi. Shu sababli pedagog o'quvchilarda tabiatga mehr uyg'otishi, ekologik odatlarni shakllantirishi hamda mas'uliyat hissini rivojlantirishi lozim.

Tabiiy fan mazmuni orqali ekologik tarbiya shakllantirilib, tabiatni asrab-avaylashga o'rgatiladi. Mazkur fan quyidagi yo'nalishlar orqali ekologik tarbiyani rivojlantiradi:

1. O'simliklar va hayvonlar:

- tabiatdagi muvozanat tushuntiriladi;
- jonli mavjudotlarga mehr-muhabbat shakllantiriladi.

2. Suv va havo:

- tabiiy resurslarning ahamiyati tushuntiriladi;
- tejamkorlik odati shakllantiriladi.

3. Inson va tabiat:

- inson faoliyatining tabiatga ta'siri yoritiladi;
- ekologik muammolar haqida tushunchalar beriladi.

Aholining ekologik madaniyati shakllanishining dastlabki bosqichi bola hayotining 7–8 yosh davriga to'g'ri keladi. Boshlang'ich maktab yoshi inson hayotining muhim davri bo'lib, aynan shu bosqichda atrof-muhitga



nisbatan to'g'ri munosabat asoslari shakllanadi. Muayyan ekologik bilim va tushunchalarga ega bo'lgan o'quvchilar tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'ladilar. Kelajakda bu nafaqat ma'lum hudud, balki butun mamlakat ekologik holatining yaxshilanishiga xizmat qilishi mumkin.

Ekologik ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Shu bois ekologik ta'limning yangi axloqiy qarashlarni shakllantirishdagi hamda insonlarning amaliy faoliyatidagi muammolarni hal etishdagi roli bugungi kunda ayniqsa dolzarbdir. Kichik yoshdagi o'quvchilarni ekologik ruhda tarbiyalash o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida ekologik tarbiya berishda turli interfaol metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Har bir o'qituvchi imkon qadar darslarda yangi pedagogik metodlarni qo'llasa, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi ^[3].

Ekologik tarbiyada qo'llaniladigan interfaol metodlar:

1. Kuzatish Metodi

O'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlarni bevosita kuzatadi.

2. Amaliy faoliyat

- daraxt ekish;
- gullarni parvarish qilish;
- chiqindilarni saralash.

3. O'yin metodlari

Didaktik o'yinlar orqali ekologik tushunchalar oson o'zlashtiriladi.

4. Ekskursiyalar

Tabiat qo'yniga sayohatlar orqali bilimlar mustahkamlanadi.

Tajriba ishlari quyidagi bosqichlarda olib boriladi:

- boshlang'ich darajani aniqlash;
- ekologik darslarni tashkil etish;
- natijalarni tahlil qilish ^[4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholining ekologik madaniyatining shakllanishi bola hayotining dastlabki 7–8-yillariga to'g'ri keladi. Boshlang'ich maktab yoshi inson hayotining hal qiluvchi davri hisoblanadi, chunki aynan shu bosqichda atrofdagi dunyoga nisbatan to'g'ri munosabat asoslari shakllanadi. Muayyan ekologik g'oyalarga ega bo'lgan o'quvchilar tabiatga nisbatan ehtiyotkor bo'ladilar.

Kelajakda bu ma'lum bir mintaqada ham, butun mamlakatda ham ekologik vaziyatning yaxshilanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ekologik ta'lim zamonaviy ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda hamda uning zamonaviy tizimlarini va umuman jamiyatni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Shunday qilib, ekologik ta'limning yangi axloqiy qarashlar shakllanishidagi hamda insonlarning amaliy hayotidagi ko'plab masalalarni hal etishdagi roli bugungi kunda ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni ekologik ruhda tarbiyalash o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biri bo'lganligi sababli ushbu mavzuning dolzarbligi tobora ortib bormoqda. Boshlang'ich maktabda atrof-muhit, jumladan, o'lkashunoslik darslarida ekologik ta'limning turli shakl va usullaridan foydalanish nazarda tutiladi ^[5].

Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki:

- o'quvchilarning ekologik bilimlari oshdi;
- tabiatga munosabati ijobiy tomonga o'zgardi;
- amaliy ko'nikmalar shakllandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, maktab o'quvchilarining ekologik ta'lim-tarbiyasi quyidagi tuzilma va tizim asosida olib borilsa, uning samaradorligi ta'minlanadi: ekologik his-tuyg'u, ekologik idrok, ekologik tasavvur, ekologik tushuncha, ekologik bilim, ma'lumot, ko'nikma, malaka, odat, ekologik madaniyat (mahorat) va boshqalar. Tabiatni muhofaza qilish bugungi zamonning eng muhim masalalaridan biri ekanligi o'quvchilar

ongiga singdirilishi lozim. Haqiqatan ham, tabiiy boyliklardan haddan tashqari ko'p foydalanish, yangi yerlarni rejasiz o'zlashtirish oqibatida ekologik muvozanat keskin o'zgardi va atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo'ldi.

Ekologik tarbiya jarayonida insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatlari tarbiyalanib, o'quvchilar ongiga yoshligidan singdirib boriladi. Ekologik ta'lim-tarbiya maktabda barcha fanlarni o'qitish jarayonida amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi yosh avlodga atrof-muhit va uning muammolariga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir^[6].

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Tabiiy fan ekologik tarbiyaning asosiy manbai hisoblanadi;
- boshlang'ich sinfda berilgan ekologik tarbiya samarali va barqaror bo'ladi;
- amaliy mashg'ulotlar katta ahamiyatga ega;
- o'qituvchi metodikasi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Ekologik ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillash-tirish to'g'risida"gi PQ-4291-son qarori.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2010.
3. Komilova S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: "Fan va ta'lim", 2020.
4. Andumannopov A.M. Alisher Navoiy merosi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy tushunchalarini shakl-lantirish ("Hayrat ul-abror" dostoni maqolotlari misolida): Ped. fanl. nomz. ... diss. avto-ref. – T.: Fan. – 21 b.
5. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – T., 2003. – 320 b.
6. Mahkamova D. Boshlang'ich ta'limda ekologik madaniyatni shakllantirish. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
7. Mamashokirov S. "Ekologik barqarorlik omillari". Tafakkur jurnali, 2005-yil, 1-son.
8. Xoliqova M., Rajabova M. Tabiatshunoslikni o'qitish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 2018.
9. Тошева Д.И., Жамолова Г.К. Экологическое воспитание младших школьников // Вопросы науки и образования. – 2021. – № 19. – С. 46–51.
10. Yuldasheva Sh., Ortiqova N. Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Tafakkur", 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.